



ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING SPORT MASHG'ULOTI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

GulDPI Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası

o'qituvchisi D.U.Umaraliyev

email: dadaxonumaraliyev@gmail.com

Kalit so'zlar: Sport, pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, amaliy darslar.

Kirish. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyasi Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi [1]. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni har tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir [2]. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi pedagogik texnologiya tushunchasi ham ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan va hozirda o'z o'rniga ega



bo'lgan serqirra tushunchadir. Ammo, hozirgi yoshlarga eskirgan, ularning tilida "zerikarli" pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida unchalik ham o'z samarasini bermayapti. Shu sababdan, hozirgi zamon talabidan kelib chiqib, axborot-kommunikatsiya tizimidan foydalangan holda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan ta'limning barcha sohalarida foydalanish, jumladan, aynan sport mashg'ulotlarida ham ularni qo'llash orqali mashg'ulot samaradorligini to'laqonli ta'minlash asosiy maqsadimizdir. Darhaqiqat, bugun butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimlariga zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga, Davlat rahbari tomonidan o'quv dasturlari va metodlarini to'liq qayta ko'rib chiqish, o'qituvchilarni ortiqcha hujjatlar tayyorlashdan ozod qilib, ularga o'z malakasini oshirish uchun ko'proq imkoniyat yaratish va bunga ko'maklashish masalalari aniq belgilangan. Vazifalarni baholash, aniqlash va o'qitishni qayta takrorlash imkoniyatiga ega bo'lish uchun har bir maqsadga erishish o'lchovini bilish muhimdir, ya'ni ta'lim maqsadi shunday belgilanishi kerakki, unga erishilganlik bo'yicha aniq xulosa chiqarish mumkin bo'lsin. Ta'kidlash joizki, pedagogik adabiyotlarda vazifalar ba'zida o'xshash pedagogik maqsadlar sifatida nomlanadi. Murabbiylar o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanishi, turli o'quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o'quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, o'qitish va o'rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o'quv vositalaridan samarali foydalanish va mashg'ulotlarda o'quvchilarga imkon qadar manfaatli bo'lishini ta'minlash va shu kabi boshqa ko'pgina vazifalar o'qituvchining zimmasiga to'liq yuklatiladi. Fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'qituvchi o'qitish va o'rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas'ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o'qituvchi o'qitish jarayoni hamda o'qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to'liq bilishi lozim [3]. O'qituvchilar, talaba va o'quvchilar jamoasida o'zaro yordam,



hamkorlik va ijodiy muhitni yaratishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'рни beqiyos hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini har tomonlama mukammal loyihalashtirish, aniq maqsadlar qo'yish va ularga kafolatlangan holda erishish, rejalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi uzviy bog'langan komponentlar yig'indisi deb hisoblandi. Ushbu qoidadan kelib chiqqan holda har bir o'qitiladigan mavzuga keng qamrovli loyiha ishlab chiqish bilan bir qatorda, o'quv-metodik majmua tayyorlash yo'lga qo'yildi. Majmuaning tarkibiga loyihaga qo'shimcha mavzuga dahldor bo'lgan barcha axborotlar, tarqatma materiallar, ma'lumotnomalar, manbalar va ulardan foydalanish metodikasi kiritildi [4]. Murabbiylar mashg'ulotlar mazmunini aniq rejalashtirish uchun sportchilarga taqdim etiladigan bilim, ko'nikma, malakalar va harakat usullarini ajrata olishlari, sportchilar yo'l qo'ygan individual xato va kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish usullarini ham o'zlashtirishlari talab etiladi. [5] Shu sababdan, olib boriladigan sport mashg'ulotlarida bir xillikdan chetlab o'tib, turli metodlarni amalda qo'llash sezilarli samara berishi aniq. Quyida bir nechta zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishib chiqamiz:

1. Shaxsga yo'naltirilgan metod – bunda har bir sportchining individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olish. Bu ularni rivojlanish darajasini oshiradi va shaxsiy o'sishiga yordam beradi va eng asosiysi ortiqcha yuklamadan himoya qiladi.

2. Interfaol metodlar – turli sport o'yinlari, milliy harakatli o'yinlar yoki rolli o'yinlar orqali shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish. Bunday metodlar shug'ullanuvchilarning faqatgina jismoniy rivojlantirishdan tashqari, ularning muloqot, uyushqoqlik, o'zaro fikr almashish hamda qaror qabul qilish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Eng asosiysi, mashg'ulot jarayoniga pozitiv kayfiyat ulashib, maqsadli o'rganish jarayoniga qulaylik yaratadi. Misol uchun, “Oq terakmi ko'k terak?”, “Berkinmachoq”, turli to'pli o'yinlar yoki estafetalar.



3. Tadqiqot metodlari – muammoli vaziyatlar yaratish va ularni birgalikda hal qilish yoki turli takliflar ishlab chiqish orqali musobaqalarda yuzaga keladigan qiyin vaziyatlarga oldindan tayyorlanish imkonini beradi.

4. Innovatsion o‘quv metodlari – virtual mashg‘ulotlar, video va korreksion dasturlar, simulyator va texnologik qurilmalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish. Masalan, mashg‘ulot davomida o‘yinlar yoki bajarilayotgan texnikalar yozib olinib, so‘ngra tahlil qilinadi. Bu sportchilarga o‘z xatolarini ko‘rib to‘g‘irlash imkonini beradi. Yoki sportga doir simulyator va texnologik qurilmalardan foydalanish orqali shug‘ullanuvchilarning texnikasini oshirish.

5. Reflektiv metod – sportchilarni o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘zini baholashga o‘rgatish. Bu ularning shaxsiy maqsadlarini belgilashga va yuqori natijaga intilishga undaydi.

6. Psixologik treninglar – meditatsiya, mindfulness, motivatsiya va viziulizatsiya jarayonlari sportchilarni ruhiy holatlarini yaxshilashga va o‘z fikrlari va his-tuyg‘ularini nazorat qilib stressga qarshi kurashishga yordam beradi.

7. Reabilitatsiya – sport mashg‘ulotidan keyin sportchilarning tanasini tiklashga, jarohatlarni oldini olishga yordam beradi va albatta keyingi mashg‘ulot jarayoniga tayyor bo‘lishni ta’minlaydi.

8. Master klass va trening mashg‘ulotlar – sport turining ustasi bo‘lgan chempionlarni

Jismoniy tarbiya vasport ilmiy tadqiqotlar instituti mashg‘ulotga jalb qilish orqali shug‘ullanuvchilarga master klas namoyish qilish yoki ular bilan mashg‘ulotdan tashqari davra suhbatlari o‘tkazish. Bu ham shug‘ullanuvchilarning tanlagan sport turiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda sport turi haqidagi nazariy bilimlarni ham egallashlariga turtki bo‘ladi. Keltirilgan ushbu metodlarni o‘z o‘rnida, rejalashtirilgan holda mashg‘ulot jarayoniga tadbiq qilish, mushg‘ulot



mazmuni va sifatini oshirishga hamda mashg'ulotda qatnashadigan sportchilarning sportga bo'lgan mehri va qiziqishlarini ham oshirishga xizmat qiladi. Zotan, shug'ullanuvchilarning tanlagan sport turlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish yoki aksincha, sportga bo'lgan ishtiyoqlarini so'ndirish bevosita mashg'ulot jarayoniga bog'liq. Shu sababli, ko'r ko'rona emas, sidqidildan yondashilgan holda mashg'ulot jarayonlari tashkil etilsa, sportchilarimiz bundanda yuqori cho'qqilarni zabt etishlariga sharoit yaratilgan bo'ladi. M.V.Klarin (1989) ta'kidlab o'tganidek, ijodiy harakterlarga ega bo'lgan ta'lim maqsadlarini tanlaganimizda uning xususiyatlarini (ta'limning konkret natijalarini) ob'ektiv ifodalash qiyinlashadi. Bunda murabbiyning bahosi ekspertli, ko'p hollarda intuitiv shaklda bo'ladi va bu baho murabbiyning madaniyati va ijodiy fikrlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Pedagogik texnologiyalar esa samarador ta'lim jarayonini yaratish va kafolatlash imkoniyatidir. Shunday ekan, ushbu imkoniyatlardan foydalanish murabbiydan faqatgina sport mahoratini emas, balki pedagogik mahoratni ham talab etadi.

Xulosa. Sport mashg'ulotlarini yuqorida keltirib o'tilgan zamonaviy texnologiyalar bilan tashkil qilish sportchilarning nafaqat jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish balki, ular o'rtasidagi faol ishtirok, hamkorlik va muloqot jarayonini ta'minlaydi va shu bilan bir qatorda, ularning strategik fikrlash, qaror qabul qilish ko'nikmalarini hamda sport turiga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bu o'z-o'zidan mashg'ulotning samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Samarali tashkil etilgan mashg'ulot jarayoni esa ko'zlangan natijaga erishishimizga beminnat yordam beradi. Zero, Yangi O'zbekistonga yangi g'alabalarni taqdim etuvchi sportchilarni tayyorlash o'z bilim va malakamizga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. "O'zbekiston", Toshkent, 1997 yil.



2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim davlat standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

3. Mirzakarimov Y.A. Jismoniy tarbiya va sport darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning jihatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal Impact Factor. VOLUME 1 | ISSUE 4 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423. 25-30 b. 4. Pedagogik texnologiyalar “O‘quv - uslubiy majmua” 2017 yil 132 b. 5. Ibraximov S.U. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. Darslik. 2022 yil 211 b.